

2021- yilning yanvar-iyul oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, Farg'ona viloyatida jami **3 614,5** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **108,2** %ni tashkil



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'vicha shakllanadi.


Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yil 1- avgust holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

2021- yilning 1- avgust holatiga ko‘ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni **3 507** tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **433** taga ko‘paygan.



Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlarning soni ko‘payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o‘tgan yilga nisbatan **113,9 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **55,6 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **110,4 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **10,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **115,6 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **33,5 %**) o’sishidir.




**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalarini soni (birlikda)**

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.08.2020- yil	01.08.2021- yil	
	Farg'ona viloyati	3074	3507	114,1
	<i>shaharlar:</i>			
	Farg'ona	816	941	115,3
	Qo'qon	313	349	111,5
	Quvasoy	111	124	111,7
	Marg'ilon	306	347	113,4
	<i>tumanlar:</i>			
	Oltiariq	96	117	121,9
	Qo'shtepa	99	108	109,1
	Bag'dod	160	153	95,6
	Buvayda	122	134	109,8
	Beshariq	79	94	119,0
	Quva	136	150	110,3
	Uchko'prik	165	194	117,6

	Rishton	66	82	124,2
	So'x	40	68	170,0
	Toshloq	129	143	110,9
	O'zbekiston	79	86	108,9
	Farg'ona	94	110	117,0
	Dang'ara	124	139	112,1
	Furqat	70	79	112,9
	Yozyovon	69	89	129,0


**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.08.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, %da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Farg'ona (26,8 %), Marg'ilon (9,9 %) va Qo'qon (10,0 %) shaharlariда qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **344,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **121,5** %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **1,0** % punktga ko'payib, **9,5** %ni tashkil etdi.


**Yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Marg'ilon shahrida jami qurilish ishlari hajmining **25,3 %** yoki 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **2,1 m.**, Qo'shtepa tumanida jami qurilish ishlari hajmining **13,6 %** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **36,1 m.**, va Yozyovon tumanida esa jami qurilish ishlari hajmining **16,5 %**, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **61,9 %**ga to'g'ri keldi.


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **67,2 %**ni to'g'ri kelib, 2020 - yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichiga nisbatan **2,9 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020 - yilning mos davriga nisbatan **104,4 %**ni tashkil etgan holda **2 430,0 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




Qurilish ishlarining umumiyligi hajmida norasmiy sektor

2020- yil
yanvar-iyul



o'sish sur'ati, %da

2021- yil
yanvar-iyul



ulushi, %da


Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **92,9** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3 521,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,6 %** va **97,4 %**ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **61,8 %**i yoki **2 232,4** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



61,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **311,3** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **13,9 %**ni tashkil etdi.




13,9 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 170,7** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **52,4 %**ni tashkil etdi.



52,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **750,4** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **33,6 %**ni tashkil etdi.



33,6 %




Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati*	3 614,5	108,2	2 232,4
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	799,5	104,7	489,1
Qo'qon	297,1	119,8	163,7
Quvasoy	153,4	100,7	42,4
Marg'ilon	588,0	106,0	435,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	120,4	100,5	42,1
Qo'shtepa	140,4	125,1	109,8
Bag'dod	284,5	117,7	159,4
Buvayda	128,7	148,6	43,7
Beshariq	59,7	117,7	53,9
Quva	133,4	101,4	123,9
Uchko'prik	83,3	100,1	68,7
Rishton	57,0	103,5	31,9
So'x	77,0	95,7	41,5
Toshloq	133,6	98,8	55,5
O'zbekiston	96,9	136,6	81,8
Farg'ona	59,1	75,1	29,4
Dang'ara	201,8	100,2	103,2
Furqat	103,2	129,6	100,8
Yozyovon	97,6	101,9	55,9

* Viloyat bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **8,1 %**ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,7 %** punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,4 %** punktga kamayib, **63,1 %**ni tashkil etdi.



Norasmiy sektoring ulushi esa 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,3 %** punktga kamayib, **28,8 %**ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **20,2** %ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **9,0** % punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **79,3** % (**8,8** % punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektoring ulushi **0,5** % (**0,2** % punktga ko'payish) ni tashkil etdi.





Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **5,6 %** punktga kamaydi va **10,5 %**ni tashkil etdi. Qolgan **89,5 %**i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **5,6 %** punktga ko'paydi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Ijr : O'.Umarov
Tel.: (73) 249-87-26
(73)-241-98-42